QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 8-noyabr | 364-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Qo‘ng‘irot tumani ixtisoslashtirilgan maktab internatining 2024-yil 6-sentabr kungi 06-32/97-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (Mamutov)ning tumandagi ixtisoslashtirilgan maktab internatini zarur badiiy kitoblar bilan ta’minlash bo‘yicha taklifi ma’qullansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazaev) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov)ning ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun talab etiladigan 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘m mablag‘ni mahalliy byudjetning 2-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) mazkur qarorning 3-bandida ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani ixtisoslashtirilgan maktab internatining tegishli g‘azna hisob-raqamiga ajratilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazaev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) bilan birgalikda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha shartnomalar tuzishda tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga hamda narx-navoni haqiqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazaev) hamda Qo‘ng‘irot tumani ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori (Xudaybergenova) shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi  **B.Madaminov**